



Uzbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

_____ hokimligi

_____ maktabgacha va maktab ta'limi
_____ hqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi _____ni tasarrufidagi

_____ -maktabgacha ta'lim tashkiloti
o'rta guruh _____ yilchisi

_____ ning
“Ilk qadam” davlat qurilishi sturi
uchinchi nashri a
“O‘zbekistonning tabiiy boyliklari bilan
tanishuv”

mavzusida tashkillangan

FAOLIYAT ISHLANMASI

(Oktabr oyining 4-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.


O'rta guruhlariga oktabr oyi 4-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Guruh: O'rta guruhlar uchun

Oy mavzusi: "O'zbekiston ne'matlari va boyliklari"

Hafta mavzusi: "O'zbekistonning tabiiy boyliklari bilan tanishuv"


Ta'limiy faoliyat maqsadlari:

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarni paxtadan olingan matolar bilan tanishtirish, paxta o'simligidan olinadigan narsalar haqida tasavvurni boyitish, nutqni rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: bolalarning so'z boyligini oshirish, fikrlarini og'zaki nutqda ifodalash, argatish, ona tabiatga qiziqishni uyg'otish;

Tarbiyaviy: bolalar o'rtasida bir-birlarini hurmat qilish, bir-birining fikrini tinglash, hamkorlikda bo'lib o'ynash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kutak: mavzuga oid paxta va choyshablar, rasmlar, bolalar soniga mos bo'lgan o'yinchoqlar, AKT.



Ta'limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: - Bolajonlar, ayting-chi, mana bu narsalar nimadan olingan?

(Stolga xo'jalik sovuni, paxtayog'i, mato qo'yiladi.)

Bolalar: - Paxtadan.

Tarbiyachi: - Barakalla, bugungi ta'limiy faoliyatimizda paxtadan nimalar olinishini o'rganamiz. Toping-chi, paxtadan mato olish uchun nimalar qilish kerak?

(Bolalar javob beradilar.)

Tarbiyachi: - Qadim zamonlardan beri inson ip tayyorlash uchun ba'zi o'simliklardan foydalanishni, iplardan mato to'qishni, matolardan kiyim va boshqa narsalarni tikishni o'rgangan. Keling, fotosuratlarga qaraylik va o'simliklar qanday qilib to'qimalarga aylanishini bilib olamiz.

(Kompyuter taqdimoti.)

Tarbiyachi: - Bu o'simlik paxta deb nomlanadi. U quyosh va suv ko'p boigan yerlarda o'sadi, ya'ni bizning yurtimizda oq oltin ko'plab yetishtiriladi. Paxta ulkan mashinalar yordamida yig'ib olinadi. Mana bu momiq paxtadan iplar olinadi. Endi quyidagi narsalarning qaysi biri paxtadan olingan bo'lsa, ularni ajratib, ranglarini ayatga ko'rsatamiz.

(Bolalar matonini kiyimlar jarayonda tarbiyachi yordamberadi va nazorat qiladi.)

Tarbiyachi: - Paxta badantarbiya o'tkazib olamiz. Matonni o'qiy-man, sizlar so'zlar ma'nosiga ko'ra harakat qilasizlar.

Lo'ppi paxta ochildi,
Har yonga u sochildi.
Bir, ikki, teramiz,
Etagimizga yig'amiz.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, paxtadan chigit ajratib olinadi, paxtadan ip tayyorlash fabrikalarga yuboriladi va u yerda ip yigiriladi.

(Monitorda jarayon namoyish etiladi.)

Tarbiyachi: - Qarang, bolalar, matolar mana bunday bir-biriga boglangan va bir-birini mahkam ushlab turadigan iplardan iborat.

(Bolalarga mato bo'laklari tarqatiladi.)

Tarbiyachi: - Mana bu ip yigirish fabrikasidagi iplardan mato to'qiladi. Matolarga rassomlar turli gul va rang beradilar. Gazlamalardan chiroyli kiyimlar tikiladi.

(Monitorda jarayon namoyish etiladi.)

Tarbiyachi: - Endi kiyimlaringizni ushlab ko'ring va quyidagi savollarga javob bering.

Matoni maydalashimiz mumkinmi? Xo'sh, u qanday? (Yumshoq)

Matoni yirtib olsam bo'ladimi? Xo'sh, u qanday? (Pishiq)



Tarbiyachi: - Mana bu yerda tayyor matodan tikuvchilar kiyim tikmoqdalar. Sizningcha, matodan nimalar tikish mumkin?

Bolalar: - Paxta matosidan choyshablar, futbolkalar, turli xil yozgi kiyimlarni tikish mumkin.

Tarbiyachi: - Qog'oz va mato xususiyatlarini solishtirish uchun siz bilan birga tajriba o'tkazamiz.

Qog'oz salftkani olib, qo'lingizda siqing. Unga nima bo'ldi? (U g'ijimlangan, tekislanmaydi).

Tarbiyachi: Mato bilan ham shunday qilaylik. To'qimaga nima bo'ldi? (Bi- roz g'ijimlangan, lekin uni to'g'rilash mumkin). Agar mato dazmollansa, u avvalgi holiga qaytadi.



Tarbiyachi: - Qog'ozni yirtishga harakat qilaylik. Bu juda oson, to'g'rim. Keling, endi matoni yirtishga harakat qilaylik.

(Bolalar gazlamalarniyirtib bo'Imasligiga ishonch hosil qilishadi.)

Xo'sh, mato pishiqmi yoki qog'oz?

Keling, qog'oz salftkani suvga solamiz, nima bo'ldi? (Ho'l)

Mato bilan ham shunday qilamiz. Unga nima bo'ldi? (U ham ho'landi).

Tarbiyachi: - Shunday qilib, qog'oz ham, mato ham suvni shimadi.

Tarbiyachi: - Keling, qo'llarimizdagi mato bo'laklarini birlashtirib, choyshab yasaymiz. Biz ularni qog'ozga yopishtiramiz.

(Bolalar ishlab bo'lgach, ular ragbatlantiriladi.)

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

Rasmlarni jamla

Maqsad: bolalar kubiklardan rasmlar yig'adilar, fazoda mo'ljal oladilar: o'ngga, chapga, oldiga, orqaga tushunchalarini farqlaydilar.

Kerakli jihoz va materiallar: kubik, qirqilgan rasm, o'yinchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni kubiklardan yig'ishni tushuntirish.
2. Kubiklardan rasmlarni yig'ishni tushuntirish.
3. Mustaqil ish.

4. «Qayerga bo'lsan topasan» ta'limiy o'yin (bolalarga komanda berish: chap tomonga bor va u yerda ... topasan, o'ngga, oldinga, orqaga....).

Qo'shimcha: pazllar bilan o'yinlar, qirqilgan rasmlar.

E'tiborga molik jihati: bolalar idroki, aqliy faoliyat va qo'lmayda motorikasini rivojlantirish.

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Oq oltin o'stiramiz»

Maqsad: bolalar paxta qanday o'stirilishi, paxtadan nimalar olinishi haqida ma'lumot berish, vurgu ega bo'ladilar, paxtakorlar kasbi haqida aytib bera oladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: mavzuga oid rasm, AKT, «Paxtakorlar dalada» mavzusida rasm.

Faoliyatning borishi:

1. Suhbat: Paxta - Uzbekistonimiz oq oltini.
2. Rasmlarni tomosha qilish.
3. «Paxtadan nimalar olinadi?» ta'limiy o'yin.
4. Q.Hikmatning «Paxta» she'rini o'qish.
5. Rollar taqsimoti.



6. Ijro, rag'batlantirish.

Qo'shimcha: mavzu asosida rasmlar ko'rish. Bolalar uchun mustaqil o'yin:

«Paxta hosilini teramiz».

E'tiborga molik jihati: jamoada o'ynash, rolni to'g'ri ijro etish.

Til va nutq markazi

Hikoya: Paxtadan nimalar olinadi?

Maqsad: bolalar paxtaning qanday o'sishi, uning xususiyatlari va paxtadan nimalar olinishini biladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: mavzuga oid rasmlar, paxtadan olinadigan mahsulotlar: paxta yog', mato, v.h.

Faoliyatning borishi:

1. K.Hikmatning «Paxta» she'rini o'qish.
2. Paxtakorlar mehnati haqida suhbat.
3. Rasmni tomosha qilish: Paxtadan nimalar olinadi?
4. Tajribalar: Paxta matolarining sifat va xususiyatlari.

Qo'shimcha: «Nima nimadan olinadi?» ta'limiy o'yin, mavzuga oid adabiyotlardan namunalar o'qish.

E'tiborga molik jihati: mustaqil faoliyatga ega bo'lish, lug'atni boyitib b

Fan va tabiat markazi

Paxtadan nimalar olinadi?

Maqsad: bolalar mexanizator kasbi bilan tanishadilar, paxtaning o'sishi va unga qayta ishlov berish haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: paxta novdasi, rasmlar, paxtadan tayyorlangan mahsulotlar.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu asosida suhbat.



2. Paxtadan qanday narsalar olinishi tasvirlangan rasmlarni tomosha qilish.

3. Paxtadan olingan narsalarni tomosha qilish: in, paxta, mayu, yog‘ v.h.

Qo‘shimcha: rasmlarni tomosha qilish, badiiy adabiyotlar o‘qish. E’tiborga molik jihati: nutq ravonligiga e’tibor berish.

San’at markazi

Applikatsii: «Paxta chanog‘i»

Maqsad: bolalar gurli materiallardan foydalanib, bir nycha qismlardan yaxlit tasvir tuzishni o‘rganadilar.

Kerakli jihoz na mayurinllar: namuna, rangli qog‘oz, paxta, yelim, mo‘yqalam, qaychi.

Faoliyatini borishi:

1. Paxta haqida topilganlar.

2. Paxta chanog‘i, uning rangi na shakliga e’tibor berish.

3. Bolalarga i...

4. Ijodiy ish.

5. Bolalar tayyorlagan...

Qo‘shimcha: rasmlarni tomosha qilish, badiiy adabiyot o‘qish.

E’tiborga molik jihati: qo‘shimcha rasmni rivojlantirish, estetik didni shakllantirish.

